

Ibn Rushdning ixtiyoriylik va zaruriyat o'rtasidagi munosabatga keltirgan argumenti

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
Tashkent International University of Education

Citation: Rakhimdjanova, D. (2024). Ibn Rushd's argument on the relationship between freedom and necessity. Acta Education, 1(2), 29–34. <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2024-1-2-21-26>

Corresponding authors:
Rakhimdjanova, D.
ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'rta asrlar arab-musulmon falsafasining yirik nomoyondasi Ibn Rushdning erkinlik va zaruriyat tushunchalarining deterministik aloqasi o'rganilgan. Uning nuqtayi nazari mutafakkir zamondoshlarining fikrlarini inkori, tanqidi va rad etishi asosida yoritilib berilgan. O'rta asr falsafasida davrdagi erkinlik va zaruriyat atamaları diniy-falsafiy qarashlar uyg'unligi asnosida ko'rib chiqilgan. Taqdir va erk masalalari o'rtasidagi aloqaga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *erkinlik, iroda, zaruriyat, taqdir, qo'lga kiritish, imon, tanlov, burch, determenizm, sabab, oqibat, Xudo, ixtiyor.*

Ibn Rushd's argument on the relationship between freedom and necessity

Rakhimdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
Tashkent International University of Education, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The article examines the deterministic relationship between the concepts of freedom and necessity of Ibn Rushd, a major figure in medieval Arab-Muslim philosophy. His point of view is highlighted on the basis of denial, criticism and refutation of the opinions of the thinker's contemporaries. In medieval philosophy, the terms freedom and necessity were considered on the basis of a combination of religious and philosophical views. The author places special emphasis on the connection between the issues of fate and will.

Keywords: *freedom, will, necessity, fate, acquisition, faith, choice, duty, determinism, cause, effect, God, will.*

Funding source for publication: Tashkent International University of Education.

Publisher's Note: ActaEducation stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



Copyright: © 2023 by the authors. Licensee ActaEducation, Tashkent, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

Kirish

Falsafa tarixining har bir jabhasi yorqin, xilma-xil, o'ziga xos ayrim joylarda takrorlansada o'zining qirrasiga ega nuqtayi nazarlar to'plami bilan nur sochadi. Shunday ekan har bir davrning o'z jilosi va o'rni mavjud. Shu jumladan, sharq perepatetizm vakillari arab-musulmon falsafasiga ayniqsa, ilm-fan ravnaqi uchun eshiklarni keng ochishga o'zini kata hissalarini qo'shganlar. Aynan shu falsafiy guruhning vakili sanalgan Ibn Rushdni bu o'rinda eslab o'tish joizdir. Ibn Rushdning yoki boshqacha aytganda Averroes¹ning deyarli butun

1. Averroes snoskaning lotincha nomi "Ibn" ni "Aben" yoki "Aven"ga aylantiradigan ispancha talaffuz ta'siridan kelib chiqqan. Averroes nomi kabi turli xil transkripsiyalarda o'qiladigan ismni boshqa yerlarda topish qiyin: Ibn-Rosdin, Filius Rosadis, Ibn-Rusid, Ben-Rashid, Aben-Rassad, Aben-Rois, Aben-rusd, Aienrosd, Bsnroisd, Averroisd va boshqalar.

bir XII asr davomida hayot kechirgan va musulmon sivilizatsiyasi tarixida juda muhim bo'lgan ushbu davrning barcha voqealari bilan bog'liq. XII asr Sharqiy Abbosiylar va ispan Umayyadlarining islomiylikda oqilona va ilmiy oqim yaratishga urinishi natijasidagi to'liq halokatiga guvoh bo'ldi. 1198 yilda Ibn Rushdning vafoti bois arab falsafasi uning qiyofasida o'zining so'nggi vakilini yo'qotdi va Qur'onning erkin fikr ustidan hukmronligi deyarli olti asr davomida ta'minlandi [3].

Adabiyotlar sharhi

Ibn Rushd o'zining yashab ijod

qilgan davri uchun nostandart va original g'oyalarni ilgari surib, o'z zamondoshlarini qattiq tanqid ostiga olib bahslashgan faylasuf sanalishi hech kimga sir emas. Sharq perepatetizmi falsafasining yirik namoyandasi Ibn Rushdning qarashlari falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlar orqali bilish mumkinki ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z davri ruhiyatidan kelib chiqqan holda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, Ibn Rushdning ijodini har tomonlama yorituvchi P.Adamson [6], A.V.Sagadeyev [5], M.Fakhry [10], E.Renan [4;5], F.Woerther [17], M.A.Mensia [11], M.Di Giovanni [9] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Metodologiya

Tadqiqot davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Natija va muhokama

Ibn Rushd hayotidagi baxtsizliklar va vafotidan keyingini shon-sharafa u yashashga majbur bo'lgan tarixiy davrning noqulay va qulay sharoitlariga qarzdor. U o'zidan oldingi davr tomonidan yaratilgan buyuk intellektual madaniyat tubida silkinish jarayoni sodir bo'la boshlagan paytda paydo bo'ldi; va agar baxtsizlik yo'ldosh bo'lgan hayotining so'nggi kunlari u ilgari surgan ishlariga nisbatan ishonchsizlikdan guvohlik bersa, unda baxtli tasodif tufayli u o'zi yaratmagan asarlarni mujassamlagani uchun olgan shon-sharafi bilan muvozanatlashganini ko'rish mumkin. Ibn Rushd — Arab falsafasining o'ziga xos Boetsiyidir, mutafakkirda orginallik mavjud bo'lmasada, nomavjud o'ziga xoslikka asarlarining entsiklopedik tabiati bilan tenglashadigan shaxslardan biri hisoblanadi. Ular izlaydilar, sharhlaydilar, chunki yaratish uchun vaqt juda kech; bir so'z bilan aytganda, ular allaqachon barbod bo'layotgan sivilizatsiyaning so'nggi qo'llab-quvvatlovchiaridir; va endi, baxtli tasodif tufayli, ular ismlarini o'zlari murojaat qilgan o'sha madaniyat bilan bog'liqligini ko'rishadi; ular o'zlarining asarlari qisqa formulaga aylanganini ilg'ashadi.

Arab-isan falsafasi ikki asr davomida mavjulgini qiyinchilik bilan saqlab, u diniy aqidaparastlik, siyosiy notinchlik, chet elliklar bosqinlarining to'liqini bilan to'satdan yuvilib ketdi. X asrda xalif al-Hakam II sivilizatsiya tarixida juda muhim o'rinni egallagan xristian Yevropasiga ushbu ajoyib ilmiy asarlar orqali ko'rsatgan ta'siri tufayli shon-sharafa ega bo'lgan. Andalusiya, musulmon tarixchilarining ta'kidlashicha,

uning hukmronligi davrida turli mamlakatlardan adabiy asarlar olib kelingan ulkan maydon yuzaga kelgan. Eron va Suriyada yozilgan kitoblar ko'pincha sharqda emas, balki Ispaniyada mashhur bo'lgan. Xalif al-Hakam Abu Al-Faraji-el-Isfahanning mashhur "Antologiya"sining ilk nusxasini olish uchun unga ming dinor sof oltin yuborgan; va haqiqatan ham, bu go'zal asar Iroqqa qaraganda Andalusiya oldilardan o'qilgan. Qohira, Bag'dod, Damashq, Iskandariyada u har qanday xarajat evaziga unga qadimiy va zamonaviy ilm-fan asarlarini yetkazib berish vazifasini bajaruvchi o'z vakillarini saqlab turgan. Uning saroyi nusxa ko'chiruvchilar, kitob bog'lovchilar, rang beruvchilarni uchratish mumkin bo'lgan ustaxona vazifasini o'tagan. Xalifning kutubxonasi katalogining o'zi qirq to'rt jildidan iborat bo'lib, unda faqat har bir kitobning sarlavhasini topish mumkin edi. Ba'zi yozuvchilar jildlar soni to'rt yuz mingga yetganini va ularni bir xonadan ikkinchisiga ko'chirish uchun kamida olti oy vaqt ketganini aytishgan. Al-Hakam, bundan tashqari, genealogiya va biografiyaga juda qiziqqan. U o'qimagan kitob yo'q edi; keyin u muallifning ismi va taxallusini, uning jinsini, tug'ilgan va vafot etgan yilini va u haqida tarqalgan hazillarni maxsus varaqqa yozib qo'ygan. U vaqtini musulmon dunyosining barcha joylaridan o'z saroyiga oqib kelgan olimlar bilan suhbatlashishga sarfladi.

Andalusiya arablari, hatto al-Hakamdan ham oldin, erkin ilm-fanga moyillikni, ehtimol go'zal iqlim ta'sirida yoki yahudiylar va nasroniylar bilan uzluksiz aloqalar orqali his qilishgan. Bunday qulay sharoitlarda har tomonlama qo'llab-quvvatlangan al-Hakamning sa'y-harakatlari o'rta asrlarning eng yorqin ilmiy harakatlaridan birini rivojlantirishga yordam berdi. Ilm-fan va go'zallikka bo'lgan muhabbat X asrda dunyoning ushbu imtiyozli chekkasida mana shunday bag'rikenglikni keltirib chiqardi, bunga zamonaviy hayotda hatto misol topilmaydi. O'sha davrda xristianlar, yahudiylar, musulmonlar bir xil tilda gaplashdi, bir xil she'riyatdan zavqlandi, bir xil adabiy va ilmiy ishlarda qatnashdi. Odamlarni bir-biridan ajratib turadigan barcha to'siqlar yo'q qilindi; barchasi bir ovozdan sivilizatsiyaning umumiy ishi foydasiga ishladi. Talabalar soni minglab bo'lgan Kordova masjidlari falsafiy va ilmiy ishlarning harakatlantiruvchi markazlariga aylandi.

Ammo musulmonlarning intellektual rivojlanishining go'zal ibtidosini g'arq qilgan halokatli sabab, diniy aqidaparastlik allaqachon al-Hakamning o'limini tayyorlayotgan edi. Sharq ilohiyotshunoslari yunon falsafasining kiritilishiga yo'l qo'yib musulmon taqvodorligini bulg'aganligi

uchun xalifa Abd Al-Mo'minning qutqarilishiga jiddiy shubha bildirishgan². Ispaniyalik rigoristlar ham xuddi shunday qattiqqo'l edi. Ibn-Abi Al-Mansur³ al-Hakamning o'g'li zaif Gishamga ta'siridan foydalanib, imomlar va xalqning ilmiy bilimlarga bo'lgan instinktiv nafratini qondirishni istasa, hamma narsadan kechirilishini tushungan. U al-Hakam tomonidan juda ehtiyotkorlik bilan to'plangan kutubxonadan qadimgi odamlar tomonidan bunyod etilgan falsafa, astronomiya va boshqa fanlarga oid asarlarni tanlashni buyurgan. Bularning barchasi Kordova maydonlarida yoqib yuborilgan yoki saroyning quduqlari va sardobalariga tashlangan. Ular faqat ilohiyot, grammatika va tibbiyotga oid kitoblarni qoldirganlar. "Al-Mansurning bu harakati, — deydi tarixchi Sayd Toledskiy, — o'sha davr xronikachilari tomonidan uning xalq orasida mashhurlikka erishish va kamroq muxolifatni kutib olish istagi bilan bog'liq bo'lib, u taxtni egallashga intilgan xalifa al-Hakamning xotirasini shu kabi dog' bilan qoplagan". Darhaqiqat, Andalusiyada faylasuflar qanchalik mashhur bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Xalq hech qachon donolarni sevmagan; ular uchun aql aristokratiyasi tug'ma yoki pul aristokratiyasidan ko'ra ko'proq og'riqli bo'lgan. Al-Mansur farmonidan beri falsafa faqat qisqa vaqt ichida erkinlikdan zavqlanib, ko'p marotaba ochiq ta'qib mavzusiga aylangan. U bilan shug'ullanganlarni qonun himoyachilari yovuz deb e'lon qilishgan va olimlar ko'pincha bid'atchilar kabi hukm qilinishdan va fosh bo'lishdan qo'rqib, o'z kasblarini hatto eng yaqin do'stlaridan yashirishga majbur bo'lishgan.

XI asrda musulmon Ispaniyasi sahnasi bo'lgan to'ntarishlar Umayyadlarning madaniy ishlarining parchalanishini yakunlagan. Kordova-ilm-fan markazi - vayron qilingan, xalifalar saroylari buzib tashlangan, to'plamlar yo'q qilingan. Al-Hakam kutubxonasining saqlanib qolingani meroslari arzimagan pulga sotilib ketilgan va shu tariqa butun mamlakat bo'ylab tarqalgan. Sayd Toledskiyning aytishicha, Toledoda uning ko'p jildlarini uchratgan. U agar al-Mansur davrida tushunish va ishtiyoq bilan amalga oshirilgan qidiruvlar bo'lmaganida jildlar o'z mazmuniga ko'ra yoqib yuborilishga mahkum bo'lganligini ta'kidlagan.

Biroq, falsafa bu go'zal mamlakatda shu qadar chuqur ildiz otdiki, uni butunlay yo'q qilish uchun qilingan barcha harakatlar teskari ta'sir ko'rsatgan. Sayd guvohlik berishicha, uning davrida (1068) qadimgi ilm-fan darslari avvalgidek gullab-yashnagan, garchi bir nechta hukmdorlar hali ham ularga qarshi bo'lgan va har yili muqaddas urushga borish majburiyati faylasuflarning mashg'ulotlariga

ta'sir etmasdan qolmagan. Ba'zi zodogonlar hatto homiylik qilishgan yoki hech bo'lmaganda erkin fikrga bag'rikenglik qilishgan. Tajriba shuni ko'rsatdiki, falsafa na homiylik, na tartibga muhtoj: u hech kimdan ruxsat so'ramaydi va hech kimning buyrug'i bilan hisoblashmaydi. Inson ongining barcha ko'rinishlarida u o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Al-Hakam hukmronligining oltin davri tarixga hech qanday ulug'vor nom bermagan. Shu bilan birga, Ibn Baj, Abu Bakr Ibn Tufayl, Abu Nasr Farobiy, Ibn Rushd, fanatizmdan (mutaassiblik) azob chekkan bo'lsalar-da, ularning ismlari va asarlari Yevropa hayotining umumiy oqimiga, boshqacha aytganda insoniyatning haqiqiy hayotiga qanday kirib kelganiga guvoh bo'lishgan [1].

Ushbu zamonning ko'zgako'ringan faylasuflaridan bo'lgan Ibn Rushd o'z davrining dolzarb masalalari yuzasidan bahs yuritgan. Zamondoshlarining fikrlariga raddiyalar keltirgan holda, o'ziga xos nuqtai nazarlarni ilgari surgan. Bularga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Iroda erkinligi tarafdorlari bilan qismat tarafdorlarini bir-biriga qarshi qo'ygan bahs butun musulmon tarixi davomida olib birildi. Ibn Rushdning so'zlariga ko'ra, bu qarama-qarshilik "eng chalkash diniy masalalardan biri"dir, chunki Muqaddas bitikning dalillari ham, aqlning dalillari ham qarama-qarshi ko'rinadi. Birinchi holatda, biz Qur'onda hamma narsa tayinlanib qo'yilganligini yoki oldindan belgilab chiqilganligini ko'rsatadigan ko'plab bayonotlarni topamiz va shuning uchun odam majburlangan (*mujbar*); boshqa da'volar esa shuni ko'rsatadiki, odam o'z qarorlarini bajarishda ma'lum darajada iroda yoki qo'lga kiritish (*aktisib*) erkinligiga ega va shunga mos ravishda to'liq majburlanmagan. U ikkala tezisni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator Qur'on oyatlarini keltiradi. 54:49 kabi oyatlar: "biz hamma narsani me'yorida (*kadar*) yaratdik" hamda 57:22 oyatida "na yer yuzida, na o'zingizda falokat yuz bermaydi, lekin bu kitobda mavjud" kabi jumlar ilohiy qismat yoki majburlanishni anglatadi. Bunga qarama-qarshi bo'lgan boshqa oyatlar, mukofotlanish yoki jazolanishga undashi mumkin bo'lgan to'g'ri yoki noto'g'ri xatti-harakatlarni "qo'lga kiritish" haqida so'z boradi, masalan, 42:29 oyatida "bu sizning qo'llaringiz o'ziga olgani tufayli" va 2:286 oyatida "u [qalb] qo'lga kiritgani uchun mukofot oladi va qo'lga kiritgan yovuzligi uchun ham hisobot berishga chaqiriladi".

Yoki bashoratga ega an'analarga xos bo'lgan ushbu hadisni olsak: "inson tabiiy holatda tug'iladi; uni yahudiy yoki nasroniy qiladigan ota-onasidir". Ushbu an'ana, Ibn Rushdning so'zlariga ko'ra, insonning ishonchsizligi (*kufr*) uning tarbiyasi natijasidir, uning

2. Uning boshiga tushgan baxtsizliklar uning falsafaga bo'lgan mehr-muhabbati uchun jazo sifatida qaraldi.

3. X asr oxirida hokimiyatni qo'lga kiritgan vazir.

to'g'ri e'tiqodi (*imon*) esa uning asl tabiati (*fitra*) bilan bog'liq. Biroq, hadisga Payg'ambarning Qodir Tangrining so'zlari bilan aytilgan yana bir bayonoti zid keladi: "Men bu [odamlarni] Jannat uchun yaratdim, shuning uchun ular Jannat aholisining ishlarini qiladilar, boshqalarni esa Do'zax uchun bunyod etdim, shu boisdan ular Do'zax aholisining ishlarini qiladilar". Ushbu hadis itoatsizlik, gunoh va imonsizlik u tomonidan oldindan belgilab qo'yilganligini aniq anglatib turibdi. Aynan shu sababli, davom etadi Ibn Rushd, ba'zi musulmonlar, masalan, mutaziliylar, odamning qo'lga kiritganlari xudojo'y yoki gunohkor xatti-harakatlariga sabab bo'lishini ta'kidlagan, natijada esa u mukofot yoki jazoga tortiladi; boshqalar, masalan, deterministlar (Jabariya), odam o'z xatti-harakatlarida to'liq deterministik yoki majburiylik ostida ekanligini aytib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra, ashariylar oraliq, ammo ma'nosiz pozitsiyani taklif qilishgan, unga ko'ra odam "qo'lga kiritish" qobiliyatiga ega; ammo qo'lga kiritish vositalari ham, qo'lga kiritishning o'zi ham Xudo tomonidan yaratilgan. "Agar qo'lga kiritish va qo'lga kiritilgan harakatning o'zi, - deb yozadi u, - ikkalasi ham Xudo tomonidan yaratilgan bo'lsa, u holda individ [xizmatkor], shubhasiz, u qo'lga kiritishiga majburlangan bo'ladi" [8, 224f].

Muqaddas bitikning dalillariga u yoki bu pozitsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida keltirilishi mumkin bo'lgan aql-idrok dalillari yoki qarama-qarshi dalillar qo'shiladi. Shunday qilib, agar inson, keyinchalik mutaziliylar aytganidek, o'z harakatlarining ijrochisi yoki yaratuvchisi deb hisoblanilsa, unda ba'zi harakatlar yoki hodisalar Xudoning irodasiga zid ravishda sodir bo'ladi. "Bu, deydi Ibn Rushd, musulmonlarning Xudodan boshqa yaratuvchi yo'q degan yakdil fikriga zid bo'lar edi" [8, 225].

Agar boshqa tomondan, odam o'zining barcha harakatlarida to'liq majburlangan yoki determinlashgan deb belgilangan bo'lsa, unda diniy burch (*taklif*) chidab bo'lmas talab shakliga aylanish ehtimoli bor edi. Shunda inson bilan umuman qobiliyatsiz jonsiz narsalar (*istita'ah*) o'rtasida hech qanday farq bo'lmay qoladi. Aynan shu sababli, Ibn Rushdning ta'kidlashicha, aksariyat musulmonlar qobiliyatlar, jumladan, sog'lom fikr yuritish qobiliyati diniy burchning zaruriy sharti ekanligiga ishonishadi. Aynan shu sababli old ashariylardan bo'lgan al-Juvayniy o'zining Nizomiya yo'llagan maktubida inson Xudo chidab bo'lmas narsani talab qila olmasligidan kelib chiqqan qobiliyatlarning ma'lum bir o'lchoviga ega ekanligini tan olishga majbur bo'lgan. Biroq, Ibn Rushdning aytib o'tishicha, dastlabki ashariylar Xudo chidab bo'lmas narsani talab qilishi mumkinligini tan olishgan, mutaziliylar

esa dono va adolatli yaratuvchi haqida gap ketganda uni ratsional qabul qilinmas deya rad etishgan [10].

Ushbu ikki qarama-qarshi nuqtai nazarni murosallash uchun, avvalo, Ibn Rushdning fikriga ko'ra, diniy qonun chiqaruvchining (*shari*) maqsadi bir nuqtai nazarni boshqasiga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ular o'rtasida vositachi bo'lish ekanligini tushunishimiz kerak. Ko'rinib turibdiki, Qodir Xudo bizga ma'lum qobiliyatlar yoki kuchlarni berdi, buning natijasida tabiatan qarama-qarshi harakatlarni amalga oshirish imkonimiz mavjud. Biroq, agarda tashqi sabablar yoki zotlar qulay yoki hamkorlik qilmasa, ushbu harakatlarni "qo'lga kiritish"ning (bu yerda Ibn Rushd ularni amalga oshirishni nazarda tutadi) imkoni yo'q, Xudo bunday sabablar yoki zotlarni bizga xizmat qilish uchun yaratgan; shundan so'ng, biz o'zgartira oladigan harakatlar ikki omilga yoki determinatsiya chizig'iga, ya'ni bizning o'z qobiliyatlarimizga hamda tashqi sabablar yoki zotlarga bog'liq bo'ladi. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, deb yozadi u, "keyin biz o'zgartira oladigan harakatlar tashqi tomondan o'zimizning irodamiz va harakatlarning [yoki omillarning] xayrixohligi bilan ham amalga oshiriladi va bu Xudoning hukmi (*qada*) deb ataladi" [8, 226].

Shunday qilib, Ibn Rushd determinatsiyaning ikkita yo'nalishini (chizig'ini) belgilaydi: oxir-oqibat Xudoning hukmi bilan belgilanadigan inson irodasi yoki tanlovi va tashqi sabablar yoki omillar to'plami. U uchun bu ikki determinatsiya chizig'i bir-biriga zid emas, balki bir-biriga mos keladi. Irodamizning ham, bizni harakat qilishga majbur qiladigan tashqi kuchlarning ham uyg'un ishlashini ta'minlaydigan narsa, - bu Xudo tomonidan asrlardan beri belgilab qo'yilgan sabablar va oqibatlar tartibining mukammal muntazamligidir. Ibn Rushdning ta'kidlashicha, bu tartib bizdan tashqarida yotgan sabablar yoki omillar bilan cheklanib qolmasdan, Xudo tanamizga solgan sabablarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, "ichki va tashqi sabablarning bu aniq tartibi, - deb yozadi u, - men bunda begunohlarni nazarda tutayapman, Xudo o'z xizmatchlariga buyurgan belgilab qo'yilganlik va hukum (*qada'* va *qadar*) sanaldi hamda u Saqlangan Bitiktaxta bilan sinonimdir" [8, 227]⁴. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilgan sabablar va undan kelib chiqadigan oqibatlarni bilish, albatta, Xudoning eksklyuziv vakolati bo'lganligi tufayli, bu bilim ularning mavjudligining sababi ekanligi shundan kelib chiqadi. Ushbu bilim shaxsiy bilimimizdan farq qiladi, chunki u ma'lum bo'lgan hamma narsaning mavjudligiga sabab bo'ladi, bizning bilimimiz esa kelib chiqqan oqibatdir, deya u G'azzoliyning faylasuflar Xudo bilimlarini qisman inkor etgan, degan aybloviiga javob qilgan. Al-G'azzoliy boshchiligidagi ashariylar,

4. Saqlangan Bitiktaxta - bu Qur'on qadim zamonlardan beri yozilgan kodeksidir (qonun), qarang Qur'on, 85:22.

ko'rib turganimizdek, bu javobga e'tiroz bildirishgan, chunki u haqiqatan ham ularning oqibatlarini aniqlaydigan ikkilamchi sabablar borligini ko'rsatadi, ular tabiiyki buni rad etgan. Bundan tashqari, bu da'vo musulmonlarning dunyoda Xudodan boshqa faoliyat olib boruvchi zot yo'q, degan bir ovozdan qabul qilingan fikriga ziddir, bu fikrni esa G'azzoliy "Faylasuflarning nomuvofiqligi"da (17-savol) keltirib o'tgan; bunda Ibn Rushd hatto G'azzoliyning "Diniy fanlarning uyg'onishi" (*al-lhya*) dagi argumentiga ishora qiladi. Bu yerda kimda kim Xudodan boshqa har qanday jonli yoki jonsiz mavjudotga zotning atributini qo'llasa, bu xuddi qalamga nisbatan yozuvchi yoki yozuv atributini qo'llaganga o'xshaydi, bu atribut faqat yozuvchiga tegishlidir [10].

Ibn Rushdning fikricha, bu analogiya qabul qilinishi mumkin emas. Bunga faqat agar yozuvchi qalam ixtirochisi yoki uning borliqdagi qo'riqchisi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yilishi mumkin, bu hislat esa faqat Xudoga tegishli. Chunki faqat u ikkilamchi sabablarni keltirib chiqarishi va ularni o'zi xohlagancha oqibatlar bilan birga saqlab turishi mumkin. Shunday qilib, biz tabiatda kuzatadigan tartib ikki omilga bog'liq:

Xudo jonli va jonsiz mohiyatlarga joylagan narsalarning tabiati va xususiyatlariga.

Ushbu mohiyatlarga tashqi tomondan ta'sir qiladigan sabablarga, bularga yorqin misol biz odamlarga bo'ysunuvchi samoviy jismlarning harakatlari hisoblanadi. "Chunki Yaratguvchi ularning harakatlariga bergan tartib va muntazamlik tufayli bizning borligimiz va boshqa narsalarning mavjudligi aynan shu yerda, pastda saqlanib qoladi; shunday qilib, agar kimdir bu yerda mavjud bo'lgan ulardan birortasining tugashini, yoki bu boshqa joyda, yoki boshqa miqdorda, yoki boshqa tezlik bilan sodir bo'lishini tasavvur qilsa, Xudo buni tayinlaganidan so'nggina, yer yuzida bor bo'lgan barcha mavjudotlar yo'qolib ketadi" [7, 230].

Xuddi shunday, agar Xudo tanamizga joylagan ovqatlanish va idrok etish qobiliyatlari bo'lmaganida edi, Galen va boshqa faylasuflar, shifokorlar guvohlik berganidek, bizning tanamiz darhol nobud bo'lardi. Buni Qur'onning 16:12 kabi oyatlaridan biri tasdiqlaydi: "U sizga tun va kunduzni, quyoshni va oyni bo'ysundirdi" yoki 28:27 oyatda: "Rahm-shafqati bilan u tun va oyni yaratdi, siz uchun kun, shunda dam olishingiz va uning inoyatini so'rashingiz uchundir".

U qo'shimcha qilib, biz mavjud ob'yektlar qanday tarzda moddalardan yoki tasodiflardan iboratligini ham hisobga olishimiz kerak. Birinchilari faqat qudratli Xudo tomonidan yaratilishi yoki ixtiro etilishi, ular bilan bog'liq ikkinchi darajali sabablar esa ushbu

moddalarga xos bo'lgan tasodiflarga ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, dehqon yerni yumshatadi va urug'larni ekadi, ammo Xudo bug'doy donlariga shakl beradi. Bundan kelib chiqadiki, bu ma'noda Xudodan boshqa yaratuvchi yo'q, chunki Xudo tomonidan yaratilgan haqiqiy mavjudotlar tasodif emas, substansiyalardir [10].

Bundan tashqari, ashariylar Xudoning irodasi bilan sabablarning samaradorligini rad etishlari falsafa va umuman fanni rad etishlariga olib keladi. Inchinun, fan narsalarni ularning sabablari orqali bilishda ko'rinadi, falsafa esa ularning yakuniy sabablarini bilishda namoyon bo'ladi. Bunday rad etish, deya qo'shimcha qiladi u, inson tabiatiga begona va yana bir qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi: ko'rinib turgan dunyoda sabablarning borligini inkor etgan kishi Ko'rinmas zot mavjudligini isbotlash imkoniga ega emas. "Shunday qilib, o'sha odamlar (sabab-oqibat munosabatlarini inkor etadiganlar) Qodir Xudoni bilish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki ular har bir harakatning sababi borligini tan olmaydilar" [7, 232]. Musulmonlarning bir ovozdan qabul qilgan fikriga ko'ra, G'azzoliy sabab-oqibat munosabatlarini inkor etishni qo'llab-quvvatlash uchun Xudodan boshqa zot yo'q, biz Ibn Rushdning fikriga ko'ra, ko'rinib turgan dunyoda hech qanday zot yo'qligini emas, balki aynan shu ko'rinib turgan zotlarni bilish orqali biz Ko'rinmas zotni kashf etishga olib keladi, degan narsani anglashimiz mumkin. Ushbu zotning mavjudligi aniqlangandan so'ng, biz boshqa hech qanday zot uning ruxsati va irodasi bilan boshqacha harakat qilmasligiga ishonch hosil qilamiz.

Xulosa

Ibn Rushd mutaziliylarning libertarian pozitsiyasini ham, ularning raqiblarining deterministik pozitsiyasini ham rad etadi. Ashariylarning taxmin qilingan "oraliq" pozitsiyasi, uning fikriga ko'ra, mutlaqo ma'nosizdir, chunki ularni odamning "qo'lga kiritish"iga beradigan yagona ma'nosi - bu odam qo'lining ixtiyoriy harakati va beixtiyor konvulsiv (qaltirash) harakati o'rtasidagi farq, xolos. Ammo ikkala harakat ham bizga bog'liq emasligi sababli, biz undan voz kechishga qodir emasmiz va shuning uchun ikkala holatda ham biz qaror qabul qiluvchi yoki majburlanganmiz. Shunday qilib, konvulsiv (qaltiroq) harakat hamda go'yoki "qo'lga kiritish" bilan yoki ixtiyoriylik bilan sodir bo'ladigan qo'l harakati aslida identik sanaladi, ularning orasidagi yagona farq bu faqat semantik yoki verballikda [10]. Shu bois Ibn Rushd ushbu qarashlarga raddiyasi orqali o'z pozitsiyasini yaratishga musharraf bo'lgan. Bundan ko'inib turibdiki Xudo tomonidan yaratilgan bandaning ixtiyoriy ishlari ham, biror

sabab orqali, atrofdagilarning ta'siri asosida kelib chiqqan harakatlar ham, majburiy tarzda amalga oshirgan ishlari ham Yaratuvchining irodasi ostida amalga oshiriladi. Chunki aynan uning bergan ushbu hislatlari, sabablari orqaligini u erkin holda biro narsani amalga oshirishi mumkin. Ya'ni insonning har qanday bajargan erkin ishini oqibati ham, sababi ham faqat Qodir Xudoga ma'lum. Xullas, bu munosabatlarning barchasi bir biriga zid yoki qarama qarshi emas balki uyg'un va bir birini to'ldiruvchi hisoblanadi.

Adabiyotlar / References

1. Аверроэс (Ибн Рушд). Опровержение опровержения. – Киев: «УЦИММ - Пресс», 1999. – 687 с.
2. Ибн-Рушд. Рассуждение, выносящее решение относительно связи между религией и философией. Дополнение. Книга об открытии путей аргументирования догм общины. Каир, 1902 (на араб. яз.). – С. 85.
3. Ренан Э. Аверроэс и аверроизм. – Т. 1-2. – Киев, 1903.
4. Ренан Э. Аверроэс и аверроизм. – М., 2010. – 248 с.
5. Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроэс). - М.: «Мысль», 1973. – 207 с.
6. Adamson P. Philosophy in the Islamic World: A History of Philosophy Without Any Gaps. Oxford University Press, 2016.
7. Averroes. Al-Kashf an Manihshal-Adillah, ed. M. Qasim, Cairo, 1961.
8. Averroes on Plato's 'Republic'; trans. R. Lerner, Ithaca and London: Cornell University Press, 1974.
9. Di Giovanni M. Averroes, Philosopher of Islam. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 9-27.
10. Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.
11. Mensia M.A. Dogmatics, Theology, and Philosophy in Averroes. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 27-45.
12. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differensiat-siyasini sotsiologik so'rovnoma orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.
13. Raximdjanova D.S. Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini. - Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. ISSN 2181-1784. - Volume 4, Issue 02. - Tashkent, 2024. – Pg. 562-570.
14. Rakhimdjanova D.S. Practical importance of the transformational interpretation of the phenomenon of freedom in ancient times and in contemporaneity. - Philosophy and Life. ISSN: 2181-9505. - <https://doi.org/10.5281/zenodo.6852328>. - Tashkent, 2024. – Pg. 120-129.
15. Rakhimdjanova D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy. - Psychology And Education Journal. ISSN: 00333077. - <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562>. - 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021. – Pg. 4553-4563.
16. Rakhimdjanova D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach. - International Journal of Social Science Research and Review. ISSN: 2700-2497. - <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921>. - Germany, Duisburg, 2023. – Pg. 457-466.
17. Woerther F. Averroes' Goals in the Paraphrase (Middle Commentary) of Aristotle's Nicomachean Ethics. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 218-237.